



KUTUBXONA FOYDALANUVCHILARI ORASIDA OCHIQ AXBOROT RESURLARINI TARG'IB QILISH

Jumanazarova Rayxon Jaloliddinovna

*Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrası
o'qituvchisi*

E-mail: rayxonjumanazarova3@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahon axborot resurslari va uning foydalanuvchilar faoliyatidagi ahamiyati, jahon axborot resurslaridan foydalanishning muhim jihatlari ochiq bazalar misolida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Resurs, foydalanuvchi, axborot, nashriyot, erkin foydalanish, Oxford University Press, Cambridge University Press, Springer, EBSCO Information Services, Bio One, Elsevier*

Аннотация: *В данной статье мировые информационные ресурсы и их значение в деятельности пользователей, освещаются важные аспекты использования мировых информационных ресурсов на примере открытых баз данных.*

Ключевые слова: *Ресурс, пользователь, информация, издатель, бесплатное использование, Oxford University Press, Cambridge University Press, Springer, EBSCO Information Services, Bio One, Elsevier*

Annotation: *In this article, the World information resources and its importance in the activities of users, the important aspects of the use of World information resources are covered by the example of open databases.*

Key words: *Resource, user, information, publisher, free use, Oxford University Press, Cambridge University Press, Springer, EBSCO Information Services, Bio One, Elsevier*

Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.

SH.MIRZIYOYEV

Bugungi kunda barchamizga sir emaski, foydalanuvchilar orasida manbalardan, resurslardan elektron foydalanish jarayoni tobaro jadallashib bormoqda. Bu hol albatta axborot texnika asrining shiddat bilan o'sib borayotgani, kommunikatsiya vositalarining faol xizmat qilayotganligidan xabar beradi, albatta. Shu o'rinda alohida shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bugungi yangi O'zbekiston yoshlari nafaqat yurtimiz miqyosidagi resurslardan foydalanibgina qolmasdan, jahon miqyosida ham resurslardan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa o'zbek yoshlarining imkon doirasida o'zbek tilidan tashqari jahonning boshqa tillarida ham



qiziqishi, intilishi ko'p tillilik hususiyatining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi kunning talabi bu- albatta, zarur axborotlarga ega bo'lishga intilishdir. Ayniqsa, bu borada jahon axborot resurslari muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon axborot resurslari – dunyoning yetakchi nashriyotlarining axborot resurslaridir. Bu axborot qidiruv tizimiga ega jamiyat tomonidan tan olingan, tizimlashtirilgan va tuzilmalashgan ilmiy-ta'limiy resurslarning ma'lumot bazalaridir. Jahon axborot resurslari ro'yxatiga yuqori impakt faktorli jurnallar, eng ko'p iqtibos keltirilgan ilmiy monografiyalar, darsliklar, maqolalar va boshqa resurslar kiradi. Jahonda jamiyat tomonidan tan olingan nashriyotlar qatoriga quyidagilar kiradi: Oxford University Press, Cambridge University Press, Springer, EBSCO Information Services, Bio One, Elsevier va boshalardir. Bu nashriyotlar shunisi bilan ahamiyatliki, nashrdan chiqarilgan har bir hujjat bazalar tarkibiga joylashtirilib boriladi hamda foydalanuvchiga ochiq, erkin foydalanish imkonini beradi. Kutubxona foydalanuvchilari uchun ochiq foydalanish imkonini beruvchi bu bazalar ularning bilimlarini yanada boyitishga, ma'naviy olamini kengaytirishga, yetuk, komil inson bo'lib kamol topishida o'z hissasini qo'shadi.

Ochiq resurslar sifatida jahonning yetakchi nashriyotlari, konsorsiumlari, kutubxona saytlarida ham o'z faoliyatini olib bormoqdalar. Ulardan foydalanish yo'llarini bilish orqali ta'lim oluvchilar katta imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin. Bunga misol sifatida SPRINGER nashriyotini tahlil qilamiz.

SPRINGER kompaniyasi 1842-yilda tashkil topgan. SPRINGER fundamental bilimlar, ya'ni matematika, hujjatshunoslik, yangi texnologiyalar, meditsina, ximiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlar hamda ilmiy jurnallar nashr qiluvchi jahondagi yetakchi yirik nashriyotdir.

Springer Open - tizimda 2010-yildan boshlab ko'plab fan sohalari bo'yicha 160 ta jurnaldan ochiq foydalanish imkoniyati yaratilgan. Springer Opendagi ochiq jurnallarga bo'lgan talab tez sur'atlarda oshib ketishi natijasida, 2012-yildan kitoblardan ham ochiq foydalanish imkoniyati yo'lga qo'yildi. Jurnallar va kitoblar nashr qilinishi bilanoq, ularning elektron ko'rinishi Springer Openga joylashtiriladi. Jurnal maqolalari va kitob mualliflarining mualliflik huquqlari SPRINGER kompaniyasi tomonidan Creative Commons litsenziyasi asosida muhofaza qilinadi. 2015-yil Springer Open o'z foydalanuvchilariga 500 ming elektron resursdan foydalanish imkoniyatini yaratib berdi.

Ochiq havola bu- ommaviy Internet orqali bepul havola bo'lib, foydalanuvchilarga o'qish, yuklash, nusxa olish, tarqatish va chop etish, qidirish va iqtibos qilish, indekslash, ma'lumotlarni uzatish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish, mualliflar yo'nalishiga faqat faoliyat butunligini saqlagan holda ruxsat beradi. Faqat bu jarayonda foydalanuvchidan talab qilinadigan holat resurslarni ishlatishning huquqiy jihatiga e'tibor qaratish lozim. Hususan, 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining 42-sonli



Qonunida aynan shu jarayon bilan bog'liq holatlar yoritilgan. Ushbu Qonunning maqsadi fan, adabiyot va san'at asarlarini (mualliflik huquqi), ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlarini (turdosh huquqlar) yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda berilishicha, muallif — ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs. Qonunning 26-moddasida esa, asarlardan muallifning ismi-sharifini ko'rsatgan holda erkin foydalanish holati belgilab qo'yilgan. Asardan muallifning ismi-sharifini va olingan manbaini albatta ko'rsatgan holda hamda asardan normal foydalanilishiga zarar yetkazmaslik va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmaslik sharti bilan quyidagi tarzda erkin foydalanishga yo'l qo'yiladi:

oshkor qilingan asarlardan asl nusxada va tarjimada ilmiy, tadqiqiy, munozaraviy, tanqidiy hamda reklama bilan bog'liq bo'lmagan axborot maqsadlarida ko'zlangan maqsadga mos hajmda iqtibos olish, shu jumladan gazeta va jurnallardagi maqolalardan parchalarni matbuot sharhlari shaklida takrorlash;

omma oldida so'zlangan siyosiy nutqlar, murojaatlar, ma'ruzalar va shunga o'xshash asarlarni ko'zlangan maqsadga mos hajmda gazetalarda takrorlash, efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish. Bunda ana shunday asarlarni to'plamlarda chop etish huquqi muallifda saqlanib qoladi. Qonunning 35-moddasida esa, Mualliflik huquqining amal qilish muddati. Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi haqida belgilab qo'yilgan.

Jahon axborot resurslari va ulardan ochiq holda foydalanish holatini bugungi kunda Axborot-kutubxona markazlari, Axborot-resurs markazlari faoliyatida ham kuzatishimiz mumkin. Bu jarayon "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi prezident qarorida ham o'z aksini topgan. Bu haqida 2019 — 2024 yillarda O'zbekistonda axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi hamda axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Qaror asosida yangi tashkil etilayotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari belgilab berildi va quyidagi holat shular jumlasidandir: aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga axborotdan foydalanish imkoniyatlari yaratish, foydalanuvchilarga har qanday (bosma, multimedia va raqamli) tashuvchilarda, Internet tarmog'ida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish; kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish; o'z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to'ldirib borish orqali kitobxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish; aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha masofadan xizmatlar ko'rsatishni



rivojlantirish va modernizatsiya qilish. Yuqoridagi holatlardan shuni anglashimiz kerakki, hozirda AKM va ARM lar foydalanuvchilarni ehtiyojlarini qondirish maqsadida jahon axborot resurslarini o'z faoliyatiga olib kirmoqdalar. Bu jarayon ham dohaning asosiy yuqori ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Jahon axborot resurslari axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi

ADABIYOTLAR:

1. Raxmatullayev M.A., Ganiyeva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik/ Toshkent: Aloqachi, 2019.-192b.
2. F.Mo'minov, Sh.Barotov va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “O'zbekiston respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida” PQ-4354 07.06.2019.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida” O'RQ-42 20.07.2006